



PNEVMONIYADA QO‘LLANILADIGAN ANTIBIOTIK TERAPIYANING SAMARADORLIGI

Alfraganus Universiteti davolash ishi

3-kurs talabasi

Raxmatullayeva Zebiniso

Annotatsiya; Maqolada pnevmoniya kasalligida antibiotik terapiyasining samaradorligi, turli sinfdagi antibiotiklarning qo‘llanish xususiyatlari va ularning klinik natijalari yoritilgan. Shuningdek, bakterial qarshilikning oshishi, antibiotiklarni tanlash mezonlari va individual yondashuv zaruriyati haqida ilmiy asoslangan ma’lumotlar keltirilgan. Zamonaviy davolash protokollari asosida antibiotiklar kombinatsiyasi va optimal davolash muddatlari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: pnevmoniya, antibiotik terapiyasi, bakterial qarshilik, davolash samaradorligi, kombinatsiyalangan davo

Pnevmoniya — o‘pka to‘qimasining yallig‘lanishi bilan kechuvchi kasallik bo‘lib, dunyo bo‘yicha yuqori o‘lim ko‘rsatkichlariga ega infeksiyon kasalliklardan biridir. Uning etiologiyasida ko‘pincha *Streptococcus pneumoniae*, *Haemophilus influenzae*, *Mycoplasma pneumoniae*, *Chlamydomphila pneumoniae* kabi bakteriyalar yetakchi o‘rin tutadi. Kasallikning og‘ir shakllarida gram-manfiy bakteriyalar va stafilokokklar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Pnevmoniyani samarali davolashda antibiotik terapiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ammo antibiotiklarga rezistentlikning ortib borishi, noto‘g‘ri tanlangan preparatlar va davolashning to‘liq o‘tkazilmasligi muammoni yanada murakkablashtirmoqda. Antibiotiklar pnevmoniyaning etiologik davolash vositasi hisoblanadi. Bemorning yoshi, umumiy ahvoli, pnevmoniyaning og‘irlik darajasi va qo‘zg‘atuvchi turiga qarab davo tanlanadi. O‘z vaqtida boshlanmagan antibiotik terapiyasi o‘lim ko‘rsatkichini sezilarli oshiradi. Antibiotik sinflari va qo‘llanishi a) Beta-laktam antibiotiklar (penitsillinlar, tsefalosporinlar, karbapenemlar) Eng ko‘p qo‘llaniladi.



Amoksitsillin, tseftriakson, tsefotaksim — jamoatdan olingan pnevmoniyada samarali. Karbapenemlar — og‘ir va ko‘p dori vositalariga chidamli bakteriyalarda ishlatiladi. b) Makrolidlar (azitromitsin, klaritromitsin, eritromitsin) Atipik pnevmoniyalarda, yosh bemorlarda yaxshi natija beradi. Beta-laktamlar bilan kombinatsiyada samarasi ortadi. c) Ftorxinolonlar (levofloksasin, moksifloksasin, ципрофлоксацин) Kuchli antibakterial ta’sirga ega. Ko‘p hollarda rezistent shtammlarda qo‘llaniladi. d) Aminoglikozidlar (gentamitsin, amikasin) Og‘ir sharoitlarda, kombinatsiyada ishlatiladi. Monoterapiya uchun kam qo‘llaniladi.

Klinik belgilar (tana harorati, yo‘tal, nafas qisilishi). Laborator va radiologik ko‘rsatkichlar. Bemor yoshi va komorbid kasalliklar. Mintaqaviy bakterial rezistentlik darajasi. Klinik yaxshilanish: isitma tushishi, nafas olish normallashuvi. Laborator belgilar: leykotsitoz kamayishi, CRP pasayishi. Radiologik belgilar: infiltratlar regressiyasi. Empirik davo: qo‘zg‘atuvchi noma’lum bo‘lganda keng ta’sirli antibiotiklardan foydalanish. Maqsadli davo: laborator aniqlangan bakteriyaga qarshi antibiotikni tanlash. Kombinatsiyalangan davo: ayniqsa og‘ir pnevmoniyalarda qo‘llaniladi. Qisqa kursli davo: yengil pnevmoniyalarda 5–7 kunlik antibiotik kursi yetarli bo‘lishi mumkin. Rezistentlikni nazorat qilish: antibiotiklarni faqat zarurat tug‘ilganda qo‘llash. Antibiotikni kech boshlash. Noto‘g‘ri dozada qo‘llash. Bemorning immun holati. Qo‘zg‘atuvchining antibiotiklarga sezuvchanligi.

Xulosa;

Pnevmoniyada antibiotik terapiyasi asosiy davolash usuli hisoblanadi. Antibiotiklarning samaradorligi ularni to‘g‘ri tanlash, dozasi, davolash davomiyligi va kombinatsiyalarni oqilona qo‘llashga bog‘liq. Bakterial rezistentlikning ortib borishi davolashda individual yondashuvni talab qiladi. Shuningdek, zamonaviy klinik protokollarga rioya qilish pnevmoniya bilan bog‘liq o‘lim ko‘rsatkichlarini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;



1. Mandell LA, Wunderink RG, Anzueto A, et al. Infectious Diseases Society of America/American Thoracic Society Consensus Guidelines on the Management of Community-Acquired Pneumonia in Adults. Clin Infect Dis. 2007.
2. Metlay JP, Waterer GW, Long AC, et al. Diagnosis and Treatment of Adults with Community-acquired Pneumonia. An Official Clinical Practice Guideline of the American Thoracic Society and Infectious Diseases Society of America. Am J Respir Crit Care Med. 2019.
3. World Health Organization (WHO). Revised WHO Classification and Treatment of Pneumonia in Children at Health Facilities. Geneva, 2014.
4. Fayzullayev A., Rustamova D. Klinik infeksiyon kasalliklar. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2021.